

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

6 ЖИЛД, 4 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ
ТОМ 6, НОМЕР 4

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY
VOLUME 6, ISSUE 4



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ | INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2023-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Аскарлов Абров Давлатмирзаевич
педагогика фанлари бўйича фалсафа
доктори

Педагогика йўналиши

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Мухамедова Дилбар Гафурджановна
психология фанлари доктори, профессор

Психология йўналиши

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ EDITORIAL BOARD РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Муслимов Нарзулла Алиханович
педагогика фанлари доктори, профессор

Джораев Мухамматрасул
педагогика фанлари доктори, профессор

Тўракулов Олим Холбўтаевич
педагогика фанлари доктори

Уразова Марина Батировна
педагогика фанлари доктори

Шорена Дзамукашвили
педагогика фанлари доктори

Шорена Вахтангишвили
педагогика фанлари доктори

Нурманов Абдиназар Ташбаевич
педагогика фанлари доктори

Халиков Аъзам Абдусаломович
педагогика фанлари доктори

Мушинова Рухсона Юнусовна
PhD, доцент

Аюпова Мукаррам
педагогика фанлари номзоди, профессор

Джумаев Маманазар Иргашевич
педагогика фанлари номзоди, профессор

Ҳамидов Жалил Абдурасулович
педагогика фанлари доктори

Асилова Гулшан Асадовна
Педагогика фанлари доктори, доцент

Айрапетова Алёна Геннадьевна
психология фанлари доктори (DSc)

Саипова Малоҳат Латиповна
*психология фанлари бўйича фалсафа
доктори*

Ҳажиева Ирода Адамбаевна
филология фанлари номзоди, доцент

Азимова Насиба Эргашовна
педагогика фанлари номзоди, доцент


Ахмедова Зебинисо Азизовна
фалсафа фанлари номзоди

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Маматова Хилола МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ.....	4
2. Шодиев Илѐсжон ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ФАНЛАРНИНГ БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КОНФЛИКТОЛОГИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ.....	12
3. Karimova N.A. О'QUVCHILARDA KASB TANLASH VA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	19
4. Matyazova N.S., Maqsudova S.D. DARS MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	23
5. Баташева Х.А. МЕТОД «ШЕСТЬ ШЛЯП МЫШЛЕНИЯ» ЭДВАРДА ДЕ БОНО КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ НЕСТАНДАРТНОГО МЫШЛЕНИЯ.....	28
6. Баташева Х.А. К ВОПРОСУ ОБ ИГРОТЕХНИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	35
7. Хо'jaqulov Elbek Ermatovich UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FAZOVIIY TASSAVUR DARAJASINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	43



ISSN: 2181-9513

www.tadqiqot.uz


JOURNAL OF

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР | ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ

Хо‘jaqulov Elbek Ermatovich
Qarshi davlat universiteti.

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI CHIZMACHILIK DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNING FAZOVIIY TASSAVUR DARAJASINI ANIQLASH VA
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10508832>

ANNOTATSIYA

Maktab chizmachiligi darslarida o‘quvchilar fazoviy tasavvuri darajasini aniqlash metodikasi ishlab chiqildi va o‘quvchining fazoviy tasavvur darajasiga mos bo‘lgan grafik topshiriqlarni bajartirish yordamida fazoviy tafakkurni yanada yurori darajagacha rivojlantirish usuli taklif qilindi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, metod, fazoviy tasavvur, ta‘sir, sezgi organlari, xotira, obraz, ong, geometrik jism.

Хужакулов Элбек Эрматович

Каршинский государственный университет.

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВЕНЬ ПРОСТРАНСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ УЧЕНИКОВ
НА УРОКАХ ЧЕРЧЕНИЕ В ШКОЛЕ И МЕТОДЫ ЕГО РАЗВИТИЯ**

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается методика определение уровень развития пространственное мышления учащихся на уроках Черчение в школе, также метод развитие основывающегося на результаты достигшие учеником результата, путем решение развивающих, более сложных графических задач по курсу.

Ключевые слова: образование, метод, пространственное мышления, действия, органы чувства, память, образ, сознание, геометрическое тело.

Khojakulov Elbek Ermatovich

Karshi State University.

**METHODS FOR DETERMINING AND DEVELOPING THE LEVEL OF SPATIAL
IMAGINATION OF STUDENTS IN DRAWING LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS**

ABSTRACT

In school drawing classes, a methodology for determining the level of students' spatial imagination was developed, and a method was proposed to develop spatial thinking to a higher level by performing graphic tasks corresponding to the level of the student's spatial imagination.

Key words: education, method, spatial imagination, effect, sense organs, memory, image, consciousness, geometric body,

Bugungi kunga qadar ta'limda o'quvchilarni tayyor bilimlar bilan qurollantirish ustuvor masalalardan bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga ko'ra bilish faoliyatini boshqarish jarayoniga, ya'ni mavjud bilimlarga tayangan holda yangi bilimlarga intilish va o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarurligi birinchi darajali vazifa bo'lib qoldi.

O'quv jarayonining sermahsul va samarador bo'lishi uchun o'quvchilarda ma'lum darajada bilish faoliyati shakllangan bo'lishi shart. O'z navbatida o'quvchilar bilish faoliyatining asosiy komponentlaridan biri bo'lgan fazoviy tasavvurni rivojlantirish chizmachilik ta'limida maqsad va vosita sifatida qaralmog'i lozim.

Tasavvur ham idrok kabi borliqdagi predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan obektning xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettira oladi [7].

Tasavvur shakllanishida sezgi organlariga bevosita ta'sir etuvchi narsalarning xossalari aks etadi. Biroq idrokdan farqli ravishda tasavvurda inson sezgi organlariga o'tmishda ta'sir ko'rsatgan narsa obrazi ham mavjud bo'ladi.

Tasavvur - bu narsaning (yoki hodisaning) inson ongidagi ikkilamchi obrazidir.

Fazoviy tasavvur nima? Mazkur iboraga quyidagicha ta'rif beramiz. Berilgan jismning shaklini, o'lchamlarini, qismlarini hamda uning fazoda tutgan o'rnini fikran qayta tiklashga «fazoviy tasavvur» deyiladi. Boshqacha aytganda jismning xotirada shakllangan obrazi yoki xayoliy obrazlari orqali fikran kishi ongida qayta tiklanishi «fazoviy tasavvur» deyiladi [7].

Fazoviy tasavvur xotirada shakllangan obraz yoki xayoliy obraz orqali fikran kishi ongida qayta tiklanadi. Ushbu xususiyatiga ko'ra psixologlar fazoviy tasavvurlarni ikkiga ajratadilar:

- xotira obrazlari;
- xayoliy obrazlar.

Predmetni xotirada mavjud tushunchalar orqali fikran qayta ishlamasdan taxminiy ko'rinishda tasavvur qilish «xotira obrazi» deyiladi. Bunda jism to'g'risida xotirada mavjud obrazlar fikran ishlanadi va jism yangi farazlar bilan boyitilgan holda tasavvur qilinadi. O'z navbatida xayoliy obrazlar hosil bo'lishiga qarab ikkiga bo'linadi:

- fikran qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan xayoliy tasavvur obrazlari;
- ijodiy tasavvur obrazlari;


Xayoliy tasavvur obrazlari berilgan materiallar (chizma, tavsif, yaqqol tasvir) ni fikran qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan yangi obrazlardir.

Fazoviy tasavvurni shakllantirish va uni rivojlantirish masalalarini xorijda G.D. Glazer, I.S. Yakinmanskiy, A.D. Botinnikova, B.A. Lomova, G.I. Saranseva, G.N. Nikitina va boshqalar o'rganishgan. Mamlakatimizning bu sohadagi yetuk olimlaridan Y. Qirg'izboyev, Sh.K. Murodov, J. Yodgorov, R. Ismatullayev, D.Qo'chqorova, I. Rahmonov, A. Umronxo'jayev, E. Ro'ziyev, P. Odilov, N.Dj. Yadgarov, F.E. Ochilov, M.Xalimov, N.Tashimov va boshqalar tadqiqotlar olib borib, fazoviy tasavvurning shakllanishi va uning rivojlanishining imiy-metodik asoslarini ishlab chiqishgan.

Chizmachilik darslarida jismning shaklini uning chizmasi asosida fikran tasavvur qilish, tavsifi bo'yicha jismni tasavvur qilib, tasvirini hosil qilish, detalni berilgan aksonometriyasi bo'yicha tasavvur etib, uning uchala proyeksiyasini fikran hosil qilish natijasida hosil qilingan tasavvur obrazlar asosida amalga oshiriladi.


Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitish jarayonida tasavvurning ikkala ko'rinishini «xotira» va «xayoliy» obrazlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'quvchiga vazifa sifatida beriladigan grafik topshiriq murakkablik darajasini bilish uchun uning fazoviy tasavvuri rivojlanganlik darajasini aniqlash lozim bo'ladi. Bunga o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish

qobiliyatini yanada rivojlantirishga undovchi, murakkablik darajasi odatdagidan yuqori bo‘lgan amaliy grafik topshiriqlarni bajartirish orqali erishish mumkin.



1-rasm.

Masalan, shunday geometrik jismlardan sfera bilan kubni ko‘rib chiqamiz (1- va 2-rasmlar).




2-rasm.

Ma'lumki, chizmachilik fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida 8-sinfda o'rgatila boshlanadi. Bu davrga kelib o'quvchilarda obektiv va subektiv sabablarga ko'ra fazoviy tasavvur qilish qobiliyati turli darajada rivojlangan bo'ladi. O'quvchilarda fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarining shakllanganligi va rivojlanganligi, o'z navbatida, dars jarayonida ularning yangi materialni o'zlashtirishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchilar tomonidan nafaqat chizmachilik fanlarining, balki qator fanlarning a'lo darajada o'zlashtirilishi ularda fazoviy tasavvurning yaxshi rivojlanganligi bilan bevosita bog'liq.

Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida avvalambor o'quvchilarning fazoviy tasavvur darajasini aniqlash va dars mashg'ulotlarida beriladigan grafik topshiriqlarni ularning ko'rsatkichlariga moslashtirish orqali fazoviy tasavvurini yanada rivojlantirishga qaratish lozim. Bundan tashqari grafika fanlarini samarali o'zlashtirishda fazoviy tasavvur yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarning fazoviy tassavurini aniqlash uchun geometrik jismlarning uchta (gorizontal, frontal, profil) proyeksiyalari qanday geometrik shakllardan iborat ekanligini topish talab etilsin. Aytaylik, sfera, tsilindr, konus, kub, piramida, prizma, parallelipiped kabilar bu geometrik jismlarni dastlab to'liqligicha uchta proyeksiyalarini topish talab etilsin, so'ngra ushbu geometrik jismlarni bazi bir qismlarini kesib olgandan keyingi holatidagi xuddi o'sha proyeksiyalarini topish orqali o'quvchilarning fazoviy tasavuri darajasini aniqlab olishga erishamiz.

Yuqorida ko'rsatilgan geometrik jismlar kabi quyidagi geometrik jismlarni ham loyihalash orqali oddiylikdan murakkablikka qarab o'zgartirib borish orqali jismlarning ortogonal proyeksiya tekisliklaridagi tasvirlarini bajarishni talab etish yo'li bilan o'quvchilarning fazoviy tasavvur darajasini aniqlashimiz mumkin bo'ladi (3-rasm).



3-rasm.

Avvalda muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari [3, 4, 5] va yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Chizmachilik fani nuqtai nazaridan tasavvur va fazoviy tasavvur tushunchalariga ta'riflar berildi.
2. O'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilar tomonidan qator fanlarni, xususan, chizmachilik fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish ularda fazoviy tasavurning to'laqonli rivojlanganligi bilan bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlab o'tildi.
3. O'rta umumta'lim maktablarida chizmachilik darslarida o'quvchilarning fazoviy tasavurini rivojlantirish uchun ular fazoviy tasavurning qay darajada shakllanganligini aniqlash metodikasi ishlab chiqildi va shu asosga ko'ra murakkablik darajasi yuqori bo'lgan grafik topshiriqlarni bajarish orqali fazoviy tasavurning yuqori bo'lishligiga erishish taklif qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmonov I. Abduraxmanov A. "Chizmachilik ma'lumotnomalar" T.: "O'zbekiston"-2005
2. Rahmonov I., Qirg'izboyeva B., Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. "Chizmachilik" T.: "Voriz-nashriyot" T.: 2016
3. Очилов Ф.Э., Хужакулов Э. Формирование и развитие пространственного воображения на уроках черчения как средства улучшающий качества образование в школе // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирийў, №3/3. 2022. Нөкис, 90-93 бетлар.
4. E. Xo'jaqulov "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda fazoviy tasavurni shakllantirishning zamonaviy usullari" O'zMU xabarlarlari 2023 y. 1/1.
5. Ochilov Farkhod, Khuzhakulov Elbek. Modellierung als methode der bildung und entwicklung der raumlichen vorstellungskraft in der schule im zeichnungsunterricht. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866. Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. 507-511 pages.
6. Зайиров К.А "Графическое грамотность специалиста как фактор профессиональной подготовки" / Халқ таълими журнали, 2006 №2. 148-151 б.

7. Абдумаликов Л. Чизмачиликдан терминологик луғат-справочник. Ўрта мактаб чизмачилик ўқитувчилари учун қўлланма. «Ўқитувчи», 1977, 144 б

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

6 ЖИЛД, 3 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ
ТОМ 6, НОМЕР 3

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY
VOLUME 6, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000